



Journal of
NATURAL SCIENCE

<http://natscience.jspi.uz>

№5/3(2021)

biology chemistry geography



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TABIIY FANLAR FAKULTETI**

dotsenti, kimyo fanlari nomzodi

DAMINOV G‘ULOM NAZIRQULOVICH

tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlangan

onlayn konferensiya materiallari



Jizzax-2021

<u>ТАХРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Беларусия ФА4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор7. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор8. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц9. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.10. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.11. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д.,проф12. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.13. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц14. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.15. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц16. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.17. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)18. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц19. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)20. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц21. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц22. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

OSHLANGAN QORAKO'L TERILARINI PARDOZLASH

Sindorov Abdumo'min O'rolbek o'gli-o'qituvchi

Erkinova Nargiza O'tkir qizi-talaba

Azimov Nodir Qodir o'g'li-talaba

Jizzax davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Tarkibida 70% va undan ham ko'proq namlik mavjud bo'lganligidan oshlangan qorako'l terilari albatta quritilishi shart. Quritish ishlari erta tongdan boshlanadi, chunki quyosh nurlari havoni toza qizdirgunicha teridagi namlikning asosiy qismi chiqib ulgurishi kerak. Mabodo quritish ishlari havo qiziganidan keyin boshlansa teri go'shtparda tomonining yuz qismi tez qurib namlikni chiqarmaydigan o'ziga xos parda hosil qiladi, natijada teri to'qimasi ichidagi namlik ajralib chiqa olmaydi, bu esa salbiy oqibatlarga olib kelishi tayin.

Kalit so'zlar: oshlash jarayoni, ishlab chiqarish partiyasi, suyuqlik koeffitsenti, kislota miqdori, achitqi zichligi, brakeraj, ivitish, yuvish, antiseptik, havo xarorati, oshlashning texnologik xaritasi, arpa yormasi, havo pufakchalari, tozalash, dam berish, teri to'qimasining tur (retikulyar) qavati, eruvchan oqsillar, egiluvchanlik.

Terilarni quritish. Oshlangan qorako'l terilari barkaslardan chiqarilgach ikki xil usulda quritiladi: a) ochiq havoda; b) bino ichida issiq havo yordamida majburan quritish.

Ochiq havoda quritish azaldan qo'llanib kelingan an'anaviy quritish usuli hisoblanadi. Quritish ishlari tuproqlari zichlangan tekis maydonlarda quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Oshlangan terilar bir chiziqli qator bo'ylab go'shtparda tomonini yuqoriga qaratgan holda ikki ishchi ishtirokida yoyib chiqiladi. Bunda bir ishchi terining belidan pastki qismini ko'proq eniga cho'zgan holda, shakl berib, dum va orqa oyoq terilarini tekislab yoysa, ikkinchi ishchi terining belidan yuqori qismini uzunasi va eniga cho'zib shakl beradi, oldingi oyoqlar va bosh terilarini tekislab yoyadi.

Quritish boshlanganidan 2-2,5 soatlar o'tgach, terilar gul tomonini yuqoriga qaratgan holda ag'darib yoyiladi. Shu tariqa terilar yana 1-2 marta ag'darib quritiladi.

Odatda terilarning yupqa mag'zli qismlari (boshi, oyoqlari, qo'litiq va chetlari) ertaroq, sal qalinlashgan qismlari (yonboshlari, dumi, bo'yni) sal keyinroq, eng mag'zli qismlari (yelka qirrasi, beli, ayniqsa sag'risi) eng oxirida quriydi. Umuman qorako'lning qurish darajasini nazorat qilish terining go'shtparda tomoniga qarab olib boriladi.

Quritish ishlarini terining barcha qismlari qovjirab qurishini kutmasdan, balki sag’ri qismida taxminan 8-10 sm² li nam orolcha qolganida to’xtatish lozim.

Quritishning bu usulini qo’llash oson va qulay, ammo ayrim kamchiliklarga ham ega:

1. Quritish jarayonining ob-havo injiqliklariga bog’likligi, ya’ni quritish uchun yog’ingarchiliksiz havo va issiq haroratning zarurligi.

2. Ko’p miqdorda qo’l mehnatining talab etilishi.

3. Ishchilarning og’ir muxitda mehnat qilishi, ya’ni quritish jarayonining asosiy qismi tik tushuvchi quyosh nurlari va jazirama issiq ostida bajarilishi.

4. Tuproqli maydonlarda quritilgan qorako’l terilar tola qoplaminig qum, loy, tuproq zarralar, shamol bilan kutarilgan chang va boshqa iflosliklar bilan ifloslanish xavfinig mavjudligi.

Issiq havo bilan majburan quritish. Oshlangan qorako’lni quritishning bu usuli Qozog’istonning Chimkent shahridagi qorako’lga ishlov berish zavodida joriy qilingandi.

Quritishning bu usuli issiq havo yuboruvchi kaloriferlar o’rnatilgan moslamalar yordamida oshlangan qorako’lnig quritilishiga asoslangan. Bu moslama bir necha yopiq bo’lmalardan iborat bo’lib, ularning ichiga konveyer usulida xarakatlanuvchi terini tashuvchi romlar joylashtirilgan. Quritish jarayonida qorako’l yuzasining ortiqcha kirishmasligi, teriga berilgan shaklnig saqlanib kolishi, romdan tushib ketmasligi uchun terilar 8-10 joyidan maxsus qistirg’ichlar bilan romlarga bekitiladi va bu romlar kalorifer beradigan issiq shamol aylanib yuradigan yo’nalish bo’ylab 14 soat davomida maxsus zanjirli tasma yordamida aylanib chiqadi.

Quritish agregati usti yopiq bino ichiga qurilganidan ob-havo injiqliklari quritish jarayoniga zig’ircha ham xalaqit bera olmaydi. Buning ustiga asosiy quritish jarayonlari mexanizasiyalashtirilganligi tufayli qo’l mehnatiga deyarli o’rin qolmaydi, quritish ishlari agregatning yopiq bo’lmalarida bajarilganligi uchun qorako’l ortiqcha ifloslanmaydi, ishchilar toza, qulay sharoitlarda mehnat qilishadi.

Quritish agregatining teri tashuvchi zanjirli tasmasi har 4 soatda yopiq doira bo’yicha bir marotaba aylanib romlarga bekitilgan terini quritadi. Agregatning quritish quvvati sutkasiga 3600 dona terini tashkil qiladi.

Quritilgan terilarni sovutish. Ochiq havoda quritilgan qorako’l terilari sovutish uchun yig’ma ayvon tagiga sal qiya hoida 1-1,5 soatga qoldiriladi. Qorako’lnig qovjirab qurigan qismlari atrof havosidan nam olib yumshashi uchun 1,5-2 sutkaga dastalab (shtabellarga) terib chiqiladi.

Chetlarini tekislab, teriga shakl berish (rezga) – oshlangan teri chetlarida burtib chiqqan ortiqcha qismlarini pichoqli mashinalarda kesib olish yo’li bilan qorako’lga silliq mutanosib shakl beriladi. Bunda qorako’ldagi moyak xaltasi, quloqlari, pastki

labi, bo'yin atrofi, oldingi qo'ltiq orti, son orqasi bo'rtmalari qirqib olinadi. Qirqib olingan qiytiq va parchalar keyinroq foydalanish uchun yig'nab qo'yiladi.

Terilarni tozalash – oshlab quritilgan qorako'lning tola qoplami achitqi qoldiqlaridan, changdan maxsus tozalash mashinalarda ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich – terilarning tola qoplamlari tomonini savalash yo'li bilan gullar orasiga kirib qolgan achitqi kepagi, changi sirtga chiqariladi. Tozalovchi mashinaning aylanuvchi valiga uchi metall qoplagichli qattiq rezinadan yasalgan kalta tasmachalar bir necha qator qilib bekitilgan. Mashina vali katta tezlik bilan aylanib uning tagidagi stolga uzatilgan terini savala boshlaydi. Terining yirtilmasdan, tekis savalanishida aylanuvchi val bilan pastki harakatsiz stoli o'rtasidagi oraliq masofa katta ahamiyat kasb etadi, chunki oraliq masofa o'ta tor bo'lsa tozalanayotgan teri yirtilishi, o'ta keng bo'lsa terining changi qoqilmay qolishi mumkin. Oraliq masofa kengligi mashinaning pastiga o'rnatilgan oyoq pedali yordamida nazorat qilinadi.

Ikkinchi bosqich - savalash jarayonida tola qoplamlaridan ko'chgan achitqi qoldiqlari, kepak va changni cho'tka bilan tozalab olish. Bunda aylanuvchi valiga cho'tkalar o'rnatilgan tozalash mashinasidan foydalaniladi. Cho'tkalab tozalash davomida ajraluvchi iflosliklar va chang shu mashinkaga o'rnatilgan shamol haydovchi ventilyatorlar yordamida tashqariga chiqarib yuboriladi. Bu mashinada ishlovchi xodim odatda ikki qorako'lni “go'sht pardasini – go'sht pardasiga” qilib juftlab ushlab, avvalo, birinchi terining, keyin ikkinchi terining gullik tomonini tozalash uchun mashinaga uzatadi. Bu mashinkada ham aylanuvchi val bilan harakatsiz pastki stolning oraliq masofasini pastga o'rnatilgan oyoq pedali bilan me'yor darajasida ushlab talab etiladi, aks holda yoki teri yirtiladi, yoki teri to'lig'icha tozalanmay qoladi.

Yirtiq terilarni tikish. Tozalash paytida qorako'l terilarning hammasi birma-bir qo'ldan o'tkazilgani uchun yirtiq, ayrim qismlari yulingan va boshqa ta'mir talab terilar ajratilib maxsus tikish mashinalarida tikib, ta'mirlanadi.

Qorako'l terilariga dam berish. Qorako'l terilarini oshlash, quritish, ayniqsa tozalash paytida teri yuzasidagi qorako'l gullari to'zg'ab asl shaklini yo'qotib qo'yadi. Shu sababli tozalangan qorako'l terilari darhol xillanmaydi.

Qorako'l tovarshunosligi amaliyotida tola qoplami zichlashishi, gullarning asl holatini va qayishqoqligini tiklashi, mag'z tomonining tekislanishi hamda tarkibidagi namlik miqdorining atrof-muhit namligi bilan tenglashishi uchun oshlanib tozalangan qorako'lga dam beriladi.

Bunda tozalangan qorako'l terilari omborxonada ichida yog'och pillapoya ustiga “gulini-guliga” qilib bir metrgacha balandlikda taxlab chiqiladi va ustiga og'ir yuk

qo'yib, kami bilan 72 soatga bostirib qo'yiladi.

Mo'ljaldagi vaqt davomida dam berilgan terilarni keyin bemalol xillayverish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maqsudov IJo 'raev J.Ya. Amirov Sh.Q-CHORVACHILIK ASOSLARI Toshkent, 2012.
2. Nurislom Tuxliyev - O'zbekiston Respublikasi: Ensiklopedik Malumotnoma "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2007.
3. Sindorov, A., & Azimov, N. (2020). QORAKO'L ZOTLI QO'Y BIOLOGIYASI. Журнал естественных наук, 7(1).
4. Sindorov, A., & Azimov, N. (2020). QO'YLARNI URCHITISH. Журнал естественных наук, 7(1). 5. Sindorov Abdumo'min O'rolbek o'gli, Azimov Nodir Qodir o'g'li, & Erkinova Nargiza O'tkir qizi. (2021). QORA MOLLARNING ICHKI TUZILISHI (INTERERI). Журнал естественных наук, 7(4).